XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 21 - yanvar VI-86-10-2-34-K/23 G‘ijduvon tuman hokimligi

Tumandagi “Zarafshon” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish, nomlash hamda ularning chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shahar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 30-noyabrdagi 08-10694-xatiga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 30-noyabrdagi 08-10694-xatiga asosan yig‘ilish bayoni hamda ekspert xulosasi ma’qullansin.

2. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Yuldashovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumaning hududiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining nomi ro‘yxati 1-ilovaga, ularning chegaralari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Fuzaylov), tegishli mas’ullar bilan birgalikda:

- bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini yuzasidan kiritilgan o‘zgartirish bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlari olib borsin.

5. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Fuzaylov), Kadastr

palatasi (B.Amonov), Statistika bo‘limi (N.Jahonqulov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralar ko‘rsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasiga yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inida belgilangan tartibda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish yuklatilsin.

7. Tuman moliya bo‘limiga (G‘.Tillayev) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlariga oylik ish haqi hisoblash yuklatilsin.

8. Tuman Ichki ishlar bo‘limiga (A.Xoliqov) yangidan tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga muhr va tamg‘a olishga ko‘maklashish hamda mahalla fuqarolarining pasportlaridagi doimiy yashash manzillariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

9. Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining 2021-yil 2-fevraldagi 131/26-VI-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashi raisi **Sh.Ashurov**

Xalq deputatlari G‘ijduvon
tuman Kengashining
2023 yil 21 yanvardagi
VI-86-10-2-34-K/23-son
qaroriga
1-ilova


Tumanning hududiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarning nomlari ro‘yxati

№	Bo‘linadigan mahalla nomi	Bo‘linishi hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla nomi	Izoh
1.	“Zarafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini	“Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini	O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 30-noyabrdagi 08-10694-xati asosan yig‘ilish bayoni hamda ekspert xulosasi


Xalq deputatlari G‘ijduvon
tuman Kengashining
2023 yil 21 yanvardagi
VI-86-10-2-34-K/23-son
qaroriga
2-ilova

G‘ijduvon tumanidagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning chegaralari

“Zarafshon” mahalla chegarasi



“Nurafshon” mahalla chegarasi



Buxoro viloyati G'ijduvon tuman Nurafshon mahallasining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI

G'ijduvon tuman hokimligi vakili

Davlat kadastlari palatasi G'ijduvon tuman filiali boshlig'i

G'ijduvon tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi vakili

Nurafshon MFY raisi

Chegaradosh mahallar fuqarolar yig'ini raislari

Tartaxon MFY raisi

Zarafshon MFY raisi

Sohibiyon MFY raisi

Buktaroy MFY raisi

Chegaradosh Mahallalar

A dan B gacha Tartaxon mahallasi

B dan D gacha Zarafshon mahallasi

D dan E gacha Sohibiyon mahallasi

E dan F gacha Buktaroy mahallasi

Shartli belgilari

chegara chizig'i

chegaraning burilish nuqtasi